



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No8(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 202 sahifa,
24-avgust, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oliy badiiy-pedagogik ta'limda an'anaviy ustoz-shogird an'anasi va innovatsion klaster yondashuvi integratsiyasining metodologik asoslari	10
Sultonov Xaytboy Eraliyevich	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak fizika o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	14
Xudoyberdiyeva Yulduz Xayrullo qizi	
Ta'lim jarayonida raqamli platformalar va dasturiy ta'minotdan foydalanish pedagogik muammo sifatida....	19
Tengelbayeva Dinora Muratovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini ekologik ta'lim va tarbiyalashning muammo va yechimlari.....	25
Abduraxmonova Muqaddas Oblokulovna	
Axborotlashgan ta'lim muhitida telematika texnologiyalarining didaktik imkoniyatlari va ularning talaba shaxsini rivojlanishidagi o'rni.....	30
Botiraliyev Dildorbek Muzaffar o'g'li	
Mehnat migratsiyasi fenomeni va oila dialektikasining pedagogik aspektlari: translokallik sharoitida farzand tarbiyasi va "intelektual transfer" mediatsiyasi.....	34
K. B. Numanov	
Maktab rahbarlarini karyera pog'onalari asosida tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-amaliy asoslari	38
Ismailov Abduvali Abdumalikovich	
CEFR B1 mezonlari asosida 10 va 11-sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishda ijodiy topshiriqlarni loyihalash metodikasi.....	45
Ergasheva Feruza Davlatali qizi	
Talabalarda raqamli toliqish darajasi va unga ta'sir etuvchi omillarning tahlili	48
Xamdanova Muazzamxon Xabibullo qizi	
Metakognitiv kompetentlikning pedagogik mohiyati va raqamli ta'lim muhitida uni rivojlantirishning nazariy asoslari	52
Mamatmurotova Muhlis Kamol qizi	
Maktabgacha ta'limdan boshlang'ich ta'limga o'tish davrida bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishning uzluksiz metodikasi	59
Otabayeva Muazzam Abdumajidovna	
Ishsiz ayollarda shaxsiylik va emotsional xususiyatlarni o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	63
Jurayeva Shaxnoza Saatmuradovna	
Kasaba uyushmalari xodimlarida tashabbuskorlik va yetakchilik xususiyatlarini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari	69
Sharipov Hayotjon Safarovich	
"Muqobil energiya manbalari" fanini mustaqil ta'lim asosida o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqish	75
Abduqahhorova Munajat Abdulxafiz qizi	
"Elektr ta'minoti" fanini o'qitishga mos yangi interfaol metod ishlab chiqish	79
Baratova Madinaxon Paxridinovna	
"Muqobil energiya manbalari" fanini o'qitish metodikasini kompetensiyaviy va raqamli yondashuvlar asosida takomillashtirish	83
Jumayeva Farzona Behzodjon qizi	
Oilada bolalarning emotsional rivojlanishining psixologik determinantlari	87
Nurmatova Muxayyo Abdumalikovna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlashda sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish modelining samaradorligi.....	92
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	



Махалля как гуманистическая воспитательная экосистема: социально-педагогические механизмы модернизации в новом Узбекистане	97
Фадлиева Амина Ильхамовна	
Talabalarda ijtimoiy mas'uliyat hissining psixologik mazmuni, tuzilishi va funksional xususiyatlari	102
Jumaniyozov Yunus Shodurdi o'g'li	
Adabiyot ta'limida immersiv texnologiyalardan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari	112
Umarov Mirzohid Baxromjon o'g'li	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarining tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik omillari	116
Xasanov Javohir Muxtorovich	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda axborot texnologiyalari va hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	125
Malikova Madina Abduraxmon qizi	
Pedagogical and Methodological Possibilities for Developing Students' Critical Thinking Competence in Teaching English Based on the "Project-Based Learning" Approach	129
Berdiyeva Shakhnoza Kholmakhammatovna	
Chekka hisoblash texnologiyasi yordamida aqlli mehmonxonada real-vaqt kayfiyat aniqlash va IoT qurilmalarini avtomatik boshqarish tizimi: Smart mood	132
Choryorqulov G'iyos Husan o'g'li, Botirova Mashhura Tulqin qizi	
Developing Academic Writing Skills Through Digital Media Tools	137
Tog'ayeva Muattar Bahodir qizi	
Xotin-qizlarda emotsional defitsit va nikohdan tashqari munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	144
Beknazarova Nigina Zarip qizi	
Sun'iy intellekt: madaniy vositachimi yoki madaniy "darvozabon"mi? chet tili o'qituvchilarini tayyorlash uchun tanqidiy nazariy asos	148
Jakbarova Nasibaxon Po'latjonovna	
Talabalarda impostor fenomeni shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillarning psixologik tadqiqotlarda o'rganilganlik holati	153
Kamilova Gulzoda	
Pedagogik innovatsiyalar va raqamli transformatsiya	157
Ahmedova Nilufar Farxodovna, Mamatqulova Dildora Farxodovna	
Inklyuziv ta'lim muhitida interfaol metodlar orqali o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini shakllantirish	161
Shukurullayeva Madina	
Jismoniy tarbiya va sport ta'lim muassasalarida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning pedagogik va me'yoriy-huquqiy asoslari	168
Ahmedov Akrom Abzalovich	
The Relationship Between Social Media Use for English Language Learning, Student Perceptions, and Learning Outcomes: Evidence from University Students in Uzbekistan	174
Akhad Akhmedov	
Tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishning tashkiliy – iqtisodiy mexanizmlari (Namangan viloyati misolida) ..	177
Boyuturayeva Mamura Uroyimovna	
Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb muammo sifatida	183
Mirxaliqov Bobur Zikrilloevich	
Sharq va G'arb pedagogika tarixidagi ma'naviy tarbiya va axloqiy qadriyatlar	188
Qodirova Nigora Farhodovna	
Sport gimnastikasining sog'lom turmush tarzini shakllantirishdagi mexanizmlari va kompleks samaralari: tizimli adabiyotlar tahlili	193
Sharapov Atabek Gayrat uli	
"Mustaqil fikrlash", "kompetensiya", "kompetentlik", "fikrlash kompetensiyasi" tushunchalarining pedagogik mazmuni	196
Kadirova Zarina Ilhomovna	

“MUSTAQIL FIKRLASH”, “KOMPETENSIYA”, “KOMPETENTLIK”, “FIKRLASH KOMPETENSIYASI” TUSHUNCHALARINING PEDAGOGIK MAZMUNI

Kadirova Zarina Ilhomovna

Navoiy shahar 3-maktab o'qituvchisi

ORCID: 0000-0002-1825-0097

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy pedagogik ta'limning muhim kategoriyalari hisoblangan “mustaqil fikrlash”, “kompetensiya”, “kompetentlik” va “fikrlash kompetensiyasi” tushunchalarining mazmun-mohiyati nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu tushunchalarning falsafiy, psixologik va pedagogik talqinlari qiyosiy o'rganilib, ularning o'zaro bog'liqligi hamda farqli jihatlari aniqlanadi. Kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan mustaqil fikrlash axborotni izlash, tahlil qilish, baholash, turli qarashlarni taqqoslash, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish va yangi vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati sifatida yoritiladi. Shuningdek, kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining pedagogik mazmuni aniqlashtirilib, fikrlash kompetensiyasining motivatsion, kognitiv, analitik, tanqidiy-baholovchi, kreativ va refleksiv komponentlari asoslab beriladi. Maqolada mazkur kompetensiyaning bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligidagi ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: mustaqil fikrlash, fikrlash, kompetensiya, kompetentlik, fikrlash kompetensiyasi, kompetensiyaviy yondashuv, tarixiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash, refleksiya, bo'lajak tarix o'qituvchisi.

Abstract: This article theoretically analyzes the content and essence of the concepts of “independent thinking,” “competence,” “competency,” and “thinking competence,” which are important categories of modern pedagogical education. The study comparatively examines the philosophical, psychological, and pedagogical interpretations of these concepts and identifies their interrelationships and distinctive features. From the perspective of the competency-based approach, independent thinking is considered as the ability to search for, analyze, and evaluate information, compare different viewpoints, draw evidence-based conclusions, and make independent decisions in new situations. The article also clarifies the pedagogical meaning of competence and competency and substantiates the motivational, cognitive, analytical, critical-evaluative, creative, and reflective components of thinking competence. Particular attention is paid to the importance of thinking competence in the professional training of future history teachers.

Key words: independent thinking, thinking, competence, competency, thinking competence, competency-based approach, historical thinking, critical thinking, creative thinking, reflection, future history teacher.

Аннотация: В статье теоретически анализируются содержание и сущность понятий “самостоятельное мышление”, “компетенция”, “компетентность” и “компетенция мышления”, являющихся важными категориями современного педагогического образования. В исследовании на основе сравнительного анализа рассматриваются философские, психологические и педагогические трактовки данных понятий, определяются их взаимосвязь и отличительные особенности. С позиции компетентного подхода самостоятельное мышление рассматривается как способность самостоятельно искать, анализировать и оценивать информацию, сопоставлять различные точки зрения, формулировать обоснованные выводы и принимать самостоятельные решения в новых ситуациях. В статье также уточняется педагогическое содержание понятий “компетенция” и “компетентность”, обосновываются мотивационный, когнитивный, аналитический, критико-оценочный, креативный и рефлексивный компоненты мыслительной компетенции. Особое внимание уделяется значению мыслительной компетенции в профессиональной подготовке будущего учителя истории.

Ключевые слова: самостоятельное мышление, мышление, компетенция, компетентность, мыслительная компетенция, компетентный подход, историческое мышление, критическое мышление, креативное мышление, рефлексия, будущий учитель истории.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida shaxsni tayyorlashga nisbatan bilimlarni o'zlashtirishga asoslangan an'anaviy yondashuvdan kompetensiyaviy yondashuvga o'tish jarayoni tobora kuchayib bormoqda. Zamonaviy ta'limning asosiy vazifasi faqat ma'lum hajmdagi bilimlarni egallagan mutaxassisni tayyorlash emas, balki o'z



bilimini yangi vaziyatlarda mustaqil qo'llay oladigan, axborotni tanqidiy tahlil qiladigan, muammolarga yechim topadigan, dalillarga asoslangan qaror qabul qiladigan va o'z faoliyatini refleksiv baholay oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat.

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida kompetensiya bilim, ko'nikma va munosabatlarning birikmasi sifatida qaraladi. Yevropa Ittifoqining umrbod ta'lim uchun asosiy kompetensiyalar bo'yicha tavsiyasida kompetensiya bilim, ko'nikma va munosabatlarning kombinatsiyasi sifatida izohlanadi; bunda bilim muayyan sohadagi fakt, tushuncha va nazariyalarni, ko'nikma bilimlardan natijaga erishish uchun foydalanish qobiliyatini, munosabat esa muayyan vaziyatlarga nisbatan harakat qilishga tayyorlikni anglatadi.

Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligida mustaqil fikrlash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarix fani mazmuni ko'plab tarixiy fakt, manba, qarash va ilmiy interpretatsiyalarni o'z ichiga oladi. Tarix o'qituvchisi ulardan foydalanishda tayyor xulosani takrorlovchi emas, balki tarixiy dalillarni tahlil qila oladigan, turli nuqtayi nazarlarni qiyoslaydigan va o'quvchilarda ham asoslangan tarixiy xulosa chiqarish qobiliyatini shakllantira oladigan pedagog bo'lishi zarur.

Shu sababli "mustaqil fikrlash", "kompetensiya", "kompetentlik" va "fikrlash kompetensiyasi" tushunchalarining mazmunini aniq chegaralash mazkur yo'nalishdagi pedagogik tadqiqotlarning metodologik asoslaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mustaqil fikrlash, kompetensiya, kompetentlik va fikrlash kompetensiyasi tushunchalarining pedagogik mazmunini aniqlash masalasi zamonaviy ta'lim nazariyasining muhim yo'nalishlaridan biridir. Mazkur tushunchalar turli fanlar doirasida, xususan, falsafa, psixologiya, pedagogika va kasbiy ta'lim metodikasi nuqtayi nazaridan tadqiq etilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ushbu kategoriyalar mazmunan o'zaro yaqin bo'lsa-da, ularning ilmiy talqinida muayyan farqlar mavjud.

Kompetensiyaviy yondashuvning xalqaro nazariy asoslarini ishlab chiqishda Yevropa Komissiyasining hujjatlari muhim ahamiyatga ega. Yevropa Komissiyasining 2018-yildagi "Umrbod ta'lim uchun asosiy kompetensiyalar to'g'risidagi tavsiyasi"da kompetensiya bilim, ko'nikma va munosabatlarning kombinatsiyasi sifatida talqin qilinadi ^[1]. Mazkur yondashuv kompetensiyani faqat muayyan bilimlar yig'indisi sifatida emas, balki bilim va ko'nikmalarni turli hayotiy hamda kasbiy vaziyatlarda qo'llashga tayyorlik bilan bog'laydi. Shu jihatdan mustaqil fikrlash ham kompetensiyaviy yondashuvning muhim tarkibiy elementi sifatida qaralishi mumkin.

European Skills, Competences, Qualifications and Occupations (ESCO) tizimida kompetensiya bilim, ko'nikma va shaxsiy, ijtimoiy hamda metodologik qobiliyatlarning ta'lim yoki mehnat jarayonidagi amaliy namoyon bo'lishi bilan bog'lanadi ^[2]. Ushbu yondashuv tadqiqotimiz uchun kompetensiya va kompetentlik o'rtasidagi farqni aniqlashda metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ya'ni kompetensiya faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan imkoniyatlar tizimini ifodalasa, kompetentlik ushbu imkoniyatlarning amaliy faoliyatda qay darajada samarali namoyon bo'lishini ko'rsatadi.

Cedefop tomonidan ishlab chiqilgan ta'lim va kasbiy tayyorgarlik terminologiyasida ham kompetensiya tushunchasi shaxsning muayyan vazifalarni bajarish uchun zarur bilim, ko'nikma va qobiliyatlarini amaliy faoliyat bilan bog'liq holda tavsiflashga xizmat qiladi ^[3]. Mazkur yondashuv kompetensiyani natijaga yo'naltirilgan faoliyat bilan bog'lash imkonini beradi. Bu esa bo'lajak tarix o'qituvchisining fikrlash kompetensiyasini faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki tarixiy manbalarni tahlil qilish, dalillarni baholash va pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati bilan baholash zarurligini ko'rsatadi.

O'qituvchi kompetensiyalarini rivojlantirish masalasida UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvlar ham alohida ahamiyatga ega. UNESCO ICT Competency Framework for Teachers hujjatida zamonaviy o'qituvchining kasbiy faoliyatida axborotni izlash, undan foydalanish, muammolarni hal qilish, hamkorlik qilish va murakkab kognitiv jarayonlarni amalga oshirish qobiliyatlariga e'tibor qaratiladi ^[4]. Mazkur yondashuv fikrlash kompetensiyasining analitik, tanqidiy-baholovchi va muammoli vaziyatlarni hal qilish bilan bog'liq jihatlarini asoslash imkonini beradi.

UNESCO International Bureau of Education materiallarida kompetensiyaga asoslangan ta'lim mazmunini yangilash, o'quvchining faolligini oshirish va bilimlarni real vaziyatlarda qo'llash masalalariga alohida e'tibor beriladi ^[5]. Bu qarashlar kompetensiyaviy yondashuvda ta'lim natijasini faqat o'zlashtirilgan bilim miqdori bilan emas, balki o'quvchining ushbu bilimlardan mustaqil va samarali foydalanish qobiliyati bilan baholash zarurligini ko'rsatadi.

Mavzuning milliy pedagogik tadqiqotlardagi talqinida ham mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda. N.Sh. Erkaboyeva kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishning nazariy-metodik jihatlarini o'rganib, mustaqil fikrlashni ta'lim jarayonida shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini tahlil qiladi ^[6]. Ushbu tadqiqot mustaqil fikrlashni kompetensiyaviy yondashuv bilan uzviy bog'lash hamda uni ta'lim natijasi sifatida qarash zarurligini ko'rsatadi.



M.O. Xodjayeve zamonaviy ta'lim sharoitida talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishning motivatsion va nazariy asoslarini tadqiq etadi ^[7]. Tadqiqot mazmunidan kelib chiqib, fikrlash jarayonining samaradorligi faqat kognitiv faoliyatga emas, balki shaxsning bilishga bo'lgan qiziqishi, muammoga nisbatan faol munosabati va o'z fikrini asoslashga intilishi bilan ham bog'liqligi ko'rinadi. Bu fikrlash kompetensiyasining motivatsion komponentini ajratish uchun muhim nazariy asosdir.

O. Raxmatovaning tarix fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotida zamonaviy tarix o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi masalasi yoritilgan ^[8]. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar tarix o'qituvchisining kasbiy kompetentligini faqat tarixiy bilimlar bilan cheklab bo'lmayligini, balki o'quv-tarbiyaviy jarayonni modellashtirish, mustaqil fikrlash, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va samarali qarorlar qabul qilish kabi qobiliyatlarni ham qamrab olishini ko'rsatadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, fikrlash kompetensiyasi tushunchasini aynan bo'lajak tarix o'qituvchisining kasbiy faoliyati bilan bog'liq holda kompleks tarzda yoritish masalasi yanada chuqur tadqiq etishni talab qiladi. Xususan, fikrlash kompetensiyasining motivatsion, kognitiv, analitik, tanqidiy-baholovchi, kreativ va refleksiv komponentlarini yagona tizim sifatida asoslash, ularning shakllanish mezonlari va diagnostik ko'rsatkichlarini aniqlash muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish va fikrlash kompetensiyasining bo'lajak tarix o'qituvchisini kasbiy tayyorlashdagi o'rnini aniqlashtirishga yo'naltirilgan

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli va tizimli yondashuvlar tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida pedagogik va psixologik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tushunchalarni mazmuniy umumlashtirish, ilmiy abstraksiyalash, induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi.

Tahlil jarayonida xalqaro kompetensiya konsepsiyalari bilan bir qatorda zamonaviy o'zbek pedagogik tadqiqotlarida kompetensiya va mustaqil fikrlash masalalarining yoritilishi ham hisobga olindi. So'nggi tadqiqotlarda ham mustaqil fikrlash tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muammoli ta'lim va kompetensiyaviy yondashuv bilan uzviy bog'liq holda tadqiq qilinmoqda.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Mustaqil fikrlash" tushunchasining mazmuni. Fikrlash insonning borliqni bilish, mavjud bilim va tajribalarni qayta ishlash, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash hamda yangi xulosalarga kelish jarayonidir. Mustaqil fikrlash esa ushbu umumiy kognitiv faoliyatning shaxsning o'z intellektual pozitsiyasini shakllantirish va asoslashga yo'naltirilgan shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Mustaqil fikrlashni faqat "o'zicha fikrlash" bilan tenglashtirish metodologik jihatdan to'g'ri emas. Chunki mustaqillik fikrning dalilliligi, mantiqiyliigi va asoslanganligi bilan birgalikda namoyon bo'ladi. Shaxs mustaqil fikrlash jarayonida:

- muammoni anglaydi;
- zarur axborotni izlaydi;
- axborot manbalarini tanlaydi;
- mavjud ma'lumotlarni tahlil qiladi;
- turli qarashlarni qiyoslaydi;
- dalil va qarshi dalillarni aniqlaydi;
- o'z nuqtayi nazarini shakllantiradi;
- xulosasini asoslaydi;
- zarurat tug'ilganda o'z qarashini qayta ko'rib chiqadi.

Demak, mustaqil fikrlashning muhim belgisi tayyor bilimni takrorlash emas, balki bilimni faol qayta ishlash va undan yangi vaziyatda foydalanishdir.

Kompetensiya haqidagi zamonaviy yondashuvlarda ham bilim va ko'nikmalardan yangi hamda kutilmagan vaziyatlarda mustaqil foydalanish kompetentlikning muhim belgisi sifatida ko'rsatiladi.

Tarix ta'limi nuqtayi nazaridan mustaqil fikrlash yanada murakkab mazmun kasb etadi. Masalan, tarixiy voqea sabablarini aniqlashda talaba faqat darslikdagi ma'lumotni takrorlamasdan, birlamchi va ikkilamchi



manbalarni taqqoslashi, muallif pozitsiyasini aniqlashi, dalillarning ishonchliligini baholashi va mustaqil xulosa chiqarishi lozim.

Shunday qilib, mustaqil fikrlash-shaxsning muammoni mustaqil anglash, axborotni izlash va tanlash, uni tahlil qilish hamda baholash, dalillarga tayangan holda o'z nuqtayi nazarini shakllantirish va asoslangan qaror yoki xulosa chiqarish jarayonidir.

“Kompetensiya” tushunchasining pedagogik mazmuni. “Kompetensiya” tushunchasi zamonaviy ta’lim paradigmasining asosiy kategoriyalaridan biridir. Uning mazmuni faqat bilim hajmi bilan cheklanmaydi. Kompetensiya bilimni amaliy vazifalarni hal etishda qo'llash imkoniyatini ham nazarda tutadi.

Yevropa ta’lim siyosatida kompetensiya bilim, ko'nikma va munosabatlarning integratsiyasi sifatida belgilanadi. Mazkur yondashuvda kompetensiyalar turli vaziyatlarda qo'llanishi, bir-biri bilan kesishishi va bir-birini to'ldirishi qayd etiladi. Tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, analitik fikrlash va kreativlik kabi qobiliyatlar turli kompetensiyalarning tarkibida namoyon bo'ladi.

Kompetensiya: bilim + ko'nikma + munosabat + faoliyatga tayyorlik integratsiyasini ifodalaydi.

Pedagogik nuqtayi nazardan kompetensiya shaxsga muayyan faoliyat sohasida samarali harakat qilish imkonini beruvchi umumlashgan sifat sifatida qaralishi mumkin.

Bo'lajak tarix o'qituvchisi misolida tarixiy bilimlarning o'zi hali mustaqil fikrlash kompetensiyasini anglatmaydi. Talaba tarixiy bilimlarni muayyan muammoni hal qilish, manbalarni tahlil qilish, tarixiy voqealarni qiyoslash va o'z xulosasini asoslash jarayonida qo'llay olgan taqdirdagina tegishli kompetensiya shakllanayotganligi haqida so'z yuritish mumkin.

“Kompetentlik” tushunchasining mazmuni. Pedagogik adabiyotlarda “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari ba'zan sinonim sifatida qo'llanadi. Biroq ularni analitik jihatdan farqlash ilmiy tadqiqot uchun muhimdir. Bizningcha, kompetensiya-shaxsga qo'yiladigan faoliyat talabi va ushbu faoliyatni bajarish uchun zarur bilim, ko'nikma, munosabat hamda imkoniyatlar tizimi bo'lsa, kompetentlik – mazkur kompetensiyalarning real faoliyatda samarali namoyon bo'lish darajasidir.

Yevropa malaka va kompetensiya tizimlaridagi yondashuv bilan ham uyg'un. ESCO kompetensiyani bilim, ko'nikma va shaxsiy, ijtimoiy hamda metodologik qobiliyatlarni ish yoki o'qish vaziyatlarida qo'llashning namoyon bo'lgan qobiliyati sifatida izohlaydi.

Shundan kelib chiqib, quyidagi mantiqiy farqlashni taklif etamiz:

Tushuncha	Asosiy mazmuni
Kompetensiya	Faoliyat uchun zarur bilim, ko'nikma, munosabat va qobiliyatlar majmui
Kompetentlik	Mazkur imkoniyatlarning amaliy faoliyatda namoyon bo'lish darajasi
Mustaqil fikrlash	Muammoni anglash, tahlil qilish, baholash va mustaqil xulosa chiqarish jarayoni
Fikrlash kompetensiyasi	Mustaqil, tanqidiy, analitik va kreativ fikrlashni turli vaziyatlarda samarali qo'llay olish qobiliyati

Bunday chegaralash tadqiqotning diagnostik apparatini ishlab chiqishda ham muhim ahamiyatga ega.

“Fikrlash kompetensiyasi” tushunchasining mazmuni. “Fikrlash kompetensiyasi” yuqoridagi tushunchalarning o'zaro integratsiyasi natijasida shakllanadigan murakkab shaxsiy-kasbiy sifatdir.

Fikrlash kompetensiyasi shaxsning nafaqat fikrlashi, balki qanday fikrlashi, o'z fikrini qanday asoslay olishi va uni turli vaziyatlarda qanday qo'llashi bilan belgilanadi.

Bizningcha, fikrlash kompetensiyasi quyidagi tarkibiy komponentlarni o'z ichiga oladi:

- Motivatsion komponent.** Bilishga qiziqish, savol berishga ehtiyoj, muammoni mustaqil hal qilishga intilish va intellektual faollik.
- Kognitiv komponent.** Nazariy va amaliy bilimlar, tushunchalar, kategoriyalar hamda fikrlash operatsiyalarini egallash.
- Analitik komponent.** Axborotni tahlil qilish, qismlarga ajratish, ular o'rtasidagi sabab-oqibat va mantiqiy aloqalarni aniqlash.
- Tanqidiy-baholovchi komponent.** Manba va axborotning ishonchliligini baholash, dalil va qarshi dalillarni qiyoslash, stereotip va asossiz xulosalarni aniqlash.
- Kreativ komponent.** Muammoga nisbatan muqobil yechimlarni ilgari surish, yangi g'oya va taxminlarni ishlab chiqish.
- Refleksiv komponent.** O'z fikrlash jarayonini kuzatish, xatolarini anglash, xulosalarini qayta ko'rib chiqish va o'z-o'zini baholash.



Mazkur komponentlar bir-biridan alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida amal qiladi. UNESCOning o'qituvchi kompetensiyalariga oid yondashuvlarida ham axborotni boshqarish, muammoni hal qilish, hamkorlik va tanqidiy fikrlash kabi murakkab kognitiv qobiliyatlarni pedagogik tayyorgarlik jarayonida rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi.

Bo'lajak tarix o'qituvchisining fikrlash kompetensiyasi. Bo'lajak tarix o'qituvchisi uchun fikrlash kompetensiyasi umumiy intellektual qobiliyatlardan tashqari kasbiy mazmunga ham ega bo'lib, tarix o'qituvchisi:

- tarixiy manbalarni tahlil qilishi;
- tarixiy fakt va talqinlarni farqlashi;
- turli tarixiy qarashlarni qiyoslashi;
- voqea va jarayonlarning sabab-oqibatlarini aniqlashi;
- tarixiy dalillarni baholashi;
- tarixiy xulosalarni asoslay olishi;
- qarama-qarshi nuqtayi nazarlarga nisbatan xolis munosabat bildira olishi;
- o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltiruvchi muammoli vaziyatlar yarata olishi zarur.

Shun sababli bo'lajak tarix o'qituvchisining fikrlash kompetensiyasini tarixiy bilimlarni mustaqil, tanqidiy, analitik va kreativ tarzda qayta ishlash hamda ularni pedagogik vaziyatlarda asoslangan qarorlar qabul qilish uchun qo'llay olish qobiliyati sifatida talqin qilish mumkin.

Bu yondashuv zamonaviy tarix o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish haqidagi tadqiqotlarda ham mustaqil va erkin fikrlash, o'quv-tarbiyaviy jarayonni modellashtirish hamda kasbiy faoliyatni takomillash-tirish bilan bog'lanmoqda.

Bizningcha, mustaqil fikrlash-shaxsning muammoni anglash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish, turli qarashlarni taqqoslash hamda dalillarga asoslangan xulosa chiqarish jarayonidir.

Kompetensiya-shaxsning muayyan faoliyatni samarali amalga oshirishiga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma, qobiliyat, motivatsiya va munosabatlarning integrativ tizimidir.

Kompetentlik-egallangan kompetensiyalarning real faoliyat jarayonida mustaqil, ongli va samarali namoyon bo'lish darajasidir.

Fikrlash kompetensiyasi-shaxsning bilim va tajribasiga tayangan holda muammoni mustaqil anglash, axborotni tahlil qilish va baholash, dalillarga asoslangan xulosa chiqarish, muqobil yechimlarni ilgari surish hamda yangi vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatidir.

Tadqiqotimizda bo'lajak tarix o'qituvchisining mustaqil fikrlash kompetensiyasi tarixiy manbalar va axborotlarni mustaqil izlash, tahlil qilish, qiyoslash va baholash, tarixiy voqea-hodisalarning sabab-oqibatla-rini aniqlash, dalillangan xulosa chiqarish hamda kasbiy-pedagogik vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishni ta'minlovchi integrativ kasbiy sifat sifatida talqin qilinadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rinda nazariy tahlil natijalari "mustaqil fikrlash", "kompetensiya", "kompetentlik" va "fikrlash kompe-tensiyasi" tushunchalari o'zaro yaqin bo'lsada, mazmunan bir xil emasligini ko'rsatdi.

Birinchidan, mustaqil fikrlash shaxsning muammoni mustaqil anglash, axborotni tahlil qilish, turli qarashlarni baholash va asoslangan xulosa chiqarish jarayonini ifodalaydi.

Ikkinchidan, kompetensiya muayyan faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bilim, ko'nikma, munosabat va qobiliyatlarning integrativ tizimidir.

Uchinchidan, kompetentlik mazkur imkoniyatlarning real faoliyatda qay darajada samarali namoyon bo'lishini ifodalaydi.

To'rtinchidan, fikrlash kompetensiyasi shaxsning bilim va intellektual imkoniyatlarini mustaqil, analitik, tanqidiy, kreativ va refleksiv fikrlash asosida turli muammoli vaziyatlarda samarali qo'llay olish qobiliyatidir.

Tadqiqot doirasida fikrlash kompetensiyasining motivatsion, kognitiv, analitik, tanqidiy-baholovchi, kreativ va refleksiv komponentlardan tashkil topishi asoslandi. Mazkur komponentlar bo'lajak tarix o'qituvchilarining mustaqil fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shunday qilib, tarix o'qituvchisini tayyorlash jarayonida asosiy e'tibor faqat tarixiy bilimlarni o'zlashtirishga emas, balki ushbu bilimlarni izlash, tahlil qilish, baholash, talqin qilish, dalillash va yangi pedagogik vaziyatlarda mustaqil qo'llash qobiliyatini shakllantirishga qaratilishi lozim.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. European Commission. Council Recommendation of 22 May 2018 on Key Competences for Lifelong Learning. Official Journal of the European Union, 2018.
2. European Commission. European Skills, Competences, Qualifications and Occupations (ESCO): Competence. 2025.
3. Cedefop. Terminology of European Education and Training Policy: Competence. Luxembourg: Publications Office of the European Union.
4. UNESCO. UNESCO ICT Competency Framework for Teachers. Version 3. Paris: UNESCO.
5. UNESCO International Bureau of Education. Competences: Curriculum Renewal and the Future of Learning.
6. Erkaboyeva N.Sh. Kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari // Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar. 2026.
7. Xodjayeva M.O. Zamonaviy ta'limda talabalarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish: motivatsion va nazariy asoslar // Science Time. 2026.
8. Raxmatova O. Yangilanayotgan O'zbekistonda tarix fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. 2026.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.